

XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2 082,8 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 0,3 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 9,2 ming nafarni, vafot etganlar 2,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 7,1 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 3 kishini va viloyatimizdan xorijga ko'chib ketganlar soni 24 kishini. Qayd etilgan nikohlar 2,9 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,6 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 082,8	<i>ming kishi</i>
Tug'ilishlar soni	9,2	<i>ming kishi</i>
O'lganlar soni	2,1	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	3	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	24	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	2,9	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,6	<i>ming birlik</i>

Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2 082,8 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 ming kishiga yoki 0,3 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 767,8 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,9 %), qishloq joylarda esa 1 315,0 ming kishi (63,1 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 038,4 ming kishini (49,9 %), erkaklar esa 1 044,4 ming kishini (50,1 %), tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni

	2024-yil	2025-yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Buxoro viloyati	2 050,6	2 082,8	101,6
Buxoro shahri	296,0	301,4	101,8
Kogon shahri	64,9	65,6	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	104,6	106,1	101,4
Buxoro	179,1	182,4	101,8
Vobkent	149,2	151,8	101,7
G'ijduvon	323,6	328,2	101,4
Kogon	85,0	86,7	102,0
Qorako'l	172,3	174,7	101,4
Qorovulbozor	20,0	20,4	102,0
Peshku	131,4	133,8	101,8
Romitan	151,7	153,8	101,4
Jondor	186,1	189,3	101,7
Shofirkon	186,7	188,6	101,0

Buxoro viloyatida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 51,8 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 51,0 kishini, 2020-yilda esa ushbu ko'rsatkich 48,0 kishini tashkil etgan.


Aholi zichligi



Tirik tugʻilishlar


Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tugʻilishlar soni 9,2 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tugʻilish koeffitsiyenti 18,0 promilleni tashkil etdi. Tugʻilishlar sonida 2020-yilning yanvar-mart oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror oʻsish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming nafarga kamaygan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan tugʻilishlar soni




Viloyatda tirik tugʻilganlar soni 9,2 ming kishini, shundan oʻgʻil bolalar soni 4,7 ming kishini (jami tugʻilganlar soniga nisbatan 51,1 %), qiz bolalar soni 4,5 ming kishini (48,9 %) tashkil etdi.

Jinslar boʻyicha taqsimlanishi



Shahar va qishloq joylar boʻyicha taqsimlanishi




Viloyatda tirik tugʻilganlar soni 9,2 ming kishini, shundan shahar joylarida 3,5 ming kishini (jami tugʻilganlar soniga nisbatan 38,0 %), qishloq joylarida 5,7 ming kishini (62,0 %) tashkil etdi.

Vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlar soni 2,1 ming kishini, har ming aholiga nisbatan oʻlim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2020-yilning yanvar-mart oylaridan 2022-yilning mos davriga qadar barqaror oʻsish kuzatilib, 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan oʻzgarmagan.


Buxoro viloyatida vafot etganlar soni




Demografik holat

Viloyatda vafot etganlar soni 2,1 ming kishini, shundan erkaklar 1,1 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 52,4 %), ayollar 1,0 ming kishini (47,6 %) tashkil etdi.

Jinslar bo'yicha taqsimlanishi



Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi




Viloyatda vafot etganlar soni 2,1 ming kishini, shundan shahar joylarida 0,9 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 42,9 %), qishloq joylarida 1,2 ming kishini (57,1 %) tashkil etdi.

Nikoh tuzganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni 2,9 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2020-yilning yanvar-mart oylaridan 2021-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming nafarga kamaygan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni




2025-yil yanvar-mart oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning oʻrtacha yoshi 22,7 yoshni, erkaklarning oʻrtacha yoshi esa 26,8 yoshni tashkil etgan.

Nikohlanganlarning oʻrtacha yoshi



Shahar va qishloq joylar boʻyicha taqsimlanishi




Viloyatda nikoh tuzganlar soni 2,9 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,2 ming birlikni (41,4 %), qishloq joylarida 1,7 ming birlikni (58,6 %) tashkil etdi.

Nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni 0,6 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar sonida 2020-yilning yanvar-mart oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror oʻsish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan oʻzgarmagan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni




2025-yil yanvar-mart oylari davomida qayd etilgan nikohdan ajrashgan ayollarning oʻrtacha yoshi 33,0 yoshni, erkaklarning oʻrtacha yoshi esa 36,0 yoshni tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning oʻrtacha yoshi



Shahar va qishloq joylar boʻyicha taqsimlanishi



Viloyatda nikohdan ajra-lishlar soni 0,6 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,3 ming birlikni (50,0 %), qishloq joylarida 0,3 ming birlikni (50,0 %) tashkil etdi.

Aholi migratsiyasi

Koʻchib kelganlar soni


2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat boʻyicha doimiy yashash maqsadida koʻchib kelganlar jami soni 2 458 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan koʻchib kelganlar 2 453 kishini, xorijiy mamlakatlardan koʻchib kelganlar 5 kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati boʻyicha koʻchib kelganlar soni

	Koʻchib kelganlar soni		
	Umumiy	shundan:	
		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	2 458	2 453	5
Buxoro shahri	872	869	3
Kogon shahri	151	151	-
<i>tumanlar:</i>			

Olot	42	42	-
Buxoro	350	350	-
Vobkent	117	117	-
G'ijduvon	143	143	-
Kogon	212	211	1
Qorako'l	92	91	1
Qorovulbozor	122	122	-
Peshku	65	65	-
Romitan	52	52	-
Jondor	82	82	-
Shofirkon	158	158	-

Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar




Ko'chib ketganlar soni

2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 3 784 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 3 760 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 24 kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib ketganlar soni

	Ko'chib ketganlar soni		
	Umumiy	shundan:	
		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	3 784	3 760	24
Buxoro shahri	801	796	5
Kogon shahri	163	163	-
<i>tumanlar:</i>			
Olot	128	128	-
Buxoro	314	314	-
Vobkent	223	223	-
G'ijduvon	707	707	-
Kogon	222	222	-
Qorako'l	226	226	-
Qorovulbozor	85	70	15
Peshku	103	102	1
Romitan	178	175	3
Jondor	205	205	-
Shofirkon	429	429	-

Xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot davrida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot davrida jami o'lganlar sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti – hisobot davrida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot davrida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.